

Date: 27th May-2026

ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA KOMIL INSON
TUSHUNCHASI

Sobirova Feruzaxon Muxtorjon qizi

Farg'ona viloyati Buvayda tumani 49-sonli umumta'lim maktabi ingliz tili fani
o'qituvchisi

mirzaabdullayevaferuzaxon@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy bobomizning komil inson tushunchasi tasavvuf adabiyoti uchun tutgan o'rni va ahamiyati keng yoritilib beriladi.

Kalit so'zlar: tasavvuf, shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat, komil inson, nafs, poklanish.

Biz bilamizki, tasavvuf tushunchasi musulmon olamida keng tarqalgan, Islom diniga asoslanuvchi buyuk ta'limot hisoblanadi. Tasavvuf orqali biz Islomning ichki va tashqi go'zalligini, insonparvarlikka chorlovini anglab yetamiz. Tasavvufning asosiy maqsadi insonni ma'nau yuksaltirish, ruhan poklash va komil inson qilib tarbiyalashdir. Komil inson darajasiga yetishish uchun inson, avvalo, ruhini poklashi kerakdir. Poklanishning birdan-bir yo'li esa nafsni yengish sanaladi.

Insonlar nafs deganda yeyishlikni, ichishlikni, kiyishlikni tushunadi. Ammo nafs tushunchasi esa keng ma'noda qo'llanilib, ilmsizlik, johillik, mansabparastlik, baxillik, hasad, kibr va shu kabi shaytoniy illatlar hisoblanib, bular inson ruhini va qalbini bulg'aydigan, Allohdan uzoqlashtiradigan illatlardir.

Tasavvuf to'rt bosqichda amalga oshirilib, biz hammamiz shariat bosqichini ado etamiz. Tasavvufni o'rganib borganimiz sari tariqat bosqichi tomon yo'nalimiz. Taqiqatdan keyin esa ma'rifat bosqichini bosib o'tadi. Bu bosqichdan o'ta olgan insongina komil inson darajasiga yetishadi. Ya'ni haqiqatga – Alloh jamoliga erishadi. Sh. Sirojiddinov yozadi: “Inson qalbida odamzod o'z taraqqiyoti davomida asta-sekin kashf etib borishi, ya'ni tilsimlarni yechib borishi lozim bo'lgan jamiki ilmlar joylangan va ular oxir-qibatda inson uchun ko'rinmas va yashirin bo'lgan Allohga eltadi... Uning zimmasidagi bosh vazifa ilohiy ne'mat bo'lgan ona zaminni obod qilish, yuksak sivilizatsiyaga eltish va buning garovi bo'lgan EZGULIKni asrashdir”.

Ikki olamni bog'lovchi komil insonning tipini Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida o'z ifodasini topgan. Zero, shoir Farhod, Majnun (Qays) timsollari orqali komil inson qiyofasini tasvirlagan. Farhodga ta'rif berar ekan, shunday bitadi:

Demonkim ko'ngli pok-u, ham ko'zi pok,
Tili pok-u, so'zi pok-u, o'zi pok.

Farhod ko'ngli, ko'ziga pok emas, balki tili ham, so'zi ham, demakki, butun borlig'i – jism-u joni pok. Mana shu emasmi komil inson qiyofasi?! Ishqning o'rni ko'ngildadir. Ko'ngil ishq tufayli poklanadi. Ko'ngil poklanib borgan sari ilohiy mohiyat kasb etadi. Ko'ngilni poklash bir ilm hamdir. Ilm esa ustozlardan o'rganiladi. Xoqon yolg'iz farzandining tarbiyasiga katta e'tibor bilan qaradi. Boniy, Moniy, Qoran,



Date: 27th May-2026

Mulkorolar uning tarbiyachisi edi. Boniy ko'ngilga ish binosini qurgan va qurishni o'rgatgan piri komildir. Moniy esa Alloh ishqini qalbga naqshlash sirini anglatgan ustoz. Qoran – ko'ngildagi toshdan ham qattiq hioblangan nafsoniy istaklarni parchalash ilmini bildirgan murshid. Shundoq ham, tug'ma ishq sohibi bo'lgan Farhod birdek suvrat-u siyrati bilan do'st-u g'animini rom eta oldi. Navoiy uning timsolida nafaqat oshiq yigit qiyofasini, balki el dardini o'z dardi, o'zgalar tashvishini o'z tashvishi, quvonchini o'z quvonchi deb bila oladigan inson qiyofasini yaratdi. Qasr qurilishida ustalar hunarini o'rganishdan, shahzoda sifatida, tortinmadi; Arman yurtida tog' qazuvchilarni ko'rganda tomoshabin bo'lib turmadi:

Hunarni asrabon netgumdir oxir,

Olib tufroqqamu ketgumdir oxir –

deb yeng shimarib ishga kirishdi – ariq qazidi, hovuz barpo etdi.

Farhodning oshiqligi nafs istaklari va shaytoniy intilishlarning timsollari bilan kurashga otlantirdi. Ishq Farhodga kuch, matonat, iroda ato etdi. Bundan ko'ra olamizki, nafsning asosiy quroli Ishq ekan.

Xusrav hiyla bilan asir etgan bo'lsa-da, Farhod haqiqiy ishq bilan uni yengdi. Bu esa nohaqlik haq va haqiqatni mahq eta olmasligining ifodasi. Demak, g'ayriinsoniylik, insoniylik ustidan tantana qilgandek ko'rinsa-da, albatta, mahv etilajak.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Navoiy "Xamsa"si millat, bashariyat tarbiyasida bemisli ahamiyat kasb etadi. Shoir ijodi islom dinining muqaddas kitobi "Qur'on" oyatlari va payg'ambarimiz hadislari ila muzayyan bo'lgan. Komillik erishish - Ollohning ishqiga va jamoliga erishish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. T.: Movarounnahr, 2009. -448 b.
2. Sh. Sirojiddinov. Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. T.: Akademnashr, 2011. -326 b.
3. www.komillikningasosi-ilm.com
4. www.komilinsonkonsepsiyasi.com

